MUSTAQILLIK YILLARIDA QUR'ONI KARIMNING ÕZBEK TILIGA TARJIMALARI: TARIXIY JARAYON VA AHAMIYATI

BAHROMOV UMID
ŞAHRISABZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ÕQITUVCHISI

SAYIBNAZAROVA GULSEVAR
ŞAHRISABZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI TALABASI
DOI:https://doi.org/10.5281/zenodo.24440207

Annotatsiya: Mazkur maqolada Õzbekiston mustaqillikka erishganidan keyingi davrda Qur'oni Karim ma'nolarining õzbek tiliga tarjima qilinişi, tarjima va tafsir asarlarining nashr etilişi hamda ushbu jarayonning tarixiy, ma'naviy va ma'rifiy ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, mustaqillik arafasida boshlangan tarjima ishlarining rivojlanishi, Shayx Alouddin Mansur, Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, Shayx Abdulaziz Mansur, Sayyid Mahmud Taroziy – Oltinxon Tõra va boshqa olimlarning Qur'on tarjimashunosligi sohasidagi xizmatlari yoritiladi. Qur'oni Karimning õzbek tilidagi izohli tarjimalari, tafsirlar, ilmiy-tarixiy sharhlar va maxsus nashrlarning yuzaga kelishi tarixiy ketma-ketlik asosida õrganiladi. Maqolada Qur'on ma'nolarining ona tilida yetkazilishi aholining diniy savodxonligini oshirish, milliy-ma'naviy qadriyatlarni tiklash, yosh avlod tarbiyasi va jamiyatning ma'rifiy hayotini rivojlantirishdagi õrni nuqtayi nazaridan baholanadi.

Kalit sõzlar: Qur'oni Karim, tarjima, tafsir, mustaqillik, õzbek tili, diniy-ma'rifiy hayot, Alouddin Mansur, Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, Oltinxon Tõra, "Tafsiri Hilol", ma'naviy qadriyatlar.

Аннотация: В данной статье анализируются переводы смыслов Священного Корана на узбекский язык в период независимости Узбекистана, история издания переводов и толкований, а также их историческое, духовное и просветительское значение. Освещается развитие переводческой деятельности, начавшейся еще накануне независимости, и вклад таких ученых, как шейх Алоуддин Мансур, шейх Мухаммад Содик Мухаммад Юсуф, шейх Абдулазиз Мансур и Сайид Махмуд Тарази – Олтинхон Тура. Рассматриваются узбекские переводы смыслов Корана, комментированные издания, тафсиры и научно-исторические пояснения. Особое внимание уделяется значению перевода Корана на родной язык для повышения религиозной грамотности населения, восстановления национальных духовных ценностей и воспитания молодого поколения.

Ключевые слова: Священный Коран, перевод, тафсир, независимость, узбекский язык, религиозно-просветительская жизнь, Алоуддин Мансур, Мухаммад Содик Мухаммад Юсуф, Олтинхон Тура, «Тафсири Хилол», духовные ценности.

Abstract: This article examines the translation of the meanings of the Holy Qur'an into Uzbek during the independence period of Uzbekistan, the historical development of Qur'anic publications, and their spiritual and educational significance. It discusses the translation activities that began on the eve of independence and the contributions of scholars such as Sheikh Alouddin Mansur, Sheikh Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, Sheikh Abdulaziz Mansur, and Sayyid Mahmud Tarozi – Oltinkhon Tora.

Mualliflik huquqi egasi tomonidan ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Uzbek translations, explanatory editions, Qur'anic commentaries, and scholarly historical notes are considered in chronological order. The article evaluates the role of Qur'anic translations in the native language in increasing religious literacy, restoring national spiritual values, educating younger generations, and developing the intellectual and cultural life of society.

Keywords: Holy Qur'an, translation, interpretation, independence, Uzbek language, religious education, Alouddin Mansur, Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, Oltinkhon Tora, "Tafsiri Hilol", spiritual values.

KIRIŞ : Har bir xalqning tarixiy taraqqiyoti, ma'naviy qiyofasi va milliy o'zligini anglash jarayonida muqaddas manbalar, diniy qadriyatlar hamda ilmiy-ma'rifiy meros alohida õrin egallaydi. Õzbek xalqi tarixida islom dini va uning muqaddas manbasi bõlgan Qur'oni Karim nafaqat diniy e'tiqod, balki ma'naviy tarbiya, axloqiy qarashlar, ilm-fan va madaniy hayot rivojiga ham katta ta'sir kõrsatgan. Qur'oni Karimda insonparvarlik, adolat, halollik, ilm olish, mehr-oqibat, ota-onaga hurmat, sabr-toqat va ezgulik kabi umuminsoniy qadriyatlar mujassam. Shu sababli uning mazmunini õrganish va tushunish musulmon jamiyatlari hayotida muhim ahamiyat kasb etib kelgan.

Qur'oni Karim arab tilida nozil bõlgan muqaddas kitob bõlib, uning oyatlarini boshqa tillarga tarjima qilish masalasi uzoq tarixga ega. Bunda muhim bir jihatni hisobga olish zarur: Qur'onning boshqa tillardagi tarjimalari asl arabcha matnning õrnini bosmaydi, balki undagi ma'nolarni insonlarga tushuntirishga xizmat qiladi. Shu bois ilmiy va diniy adabiyotlarda "Qur'on tarjimasi" iborasi bilan bir qatorda "Qur'on ma'nolarining tarjimasi" tushunchasi ham keng qõllaniladi. Tarjima jarayonida arab tilidagi sõzlarning lug'aviy ma'nosi, oyatlarning mazmuni, nozil bõlish sharoiti va diniy istilohlarning xususiyatlarini to'g'ri yetkazish muhim vazifa hisoblanadi.

Õzbek xalqi tarixida Qur'oni Karimni õrganish, uni sharhlash va diniy bilimlarni avlodlarga yetkazish an'analari qadimdan shakllangan. Movarounnahr hududida islom dini tarqalishi bilan Qur'on ilmlari, tafsir, hadis va fiqh sohalari rivojlandi. Bu zamin Abu Mansur Moturidiy, Burhoniddin Marg'inoniy, Imom Buxoriy, Imom Termiziy kabi buyuk allomalarni yetishtirib berdi. Ularning ilmiy merosi islom tafakkuri taraqqiyotiga katta hissa qõshdi. Biroq Qur'on ma'nolarini bevosita õzbek tilida keng ommaga yetkazish masalasi turli tarixiy davrlarda murakkab sharoitlarda rivojlandi.

XX asrda, xususan, sobiq sovet tuzumi davrida diniy ta'lim, diniy adabiyotlarni nashr etish va diniy bilimlarni keng targ'ib qilish imkoniyatlari cheklangan edi. Shunday sharoitda ham ayrim olimlar Qur'oni Karim ma'nolarini turkiy va õzbek tillarida ifodalash, uni sharhlash va xalqimizga yetkazish yõlida faoliyat olib bordilar. Sayyid Mahmud Taroziy – Oltinxon Tõraning 1956-yilda amalga oşirgan tarjimasi ushbu jarayon tarixida alohida ahamiyatga ega. Mustaqillik arafasida esa Qur'on ma'nolarini õzbek tilida nashr etish borasidagi ishlar faollasha boshladi.

1991-yilda Õzbekiston davlat mustaqilligiga erishishi diniy va milliy qadriyatlarni qayta tiklash, tarixiy merosni õrganish hamda diniy-ma'rifiy adabiyotlarni nashr etish uchun yangi imkoniyatlar yaratdi. Ayniqsa, Qur'oni Karim ma'nolarining zamonaviy õzbek tilida tarjima qilinishi, tafsirlarning nashr etilishi va keng kitobxonlar ommasiga yetkazilishi mustaqillik davri ma'naviy hayotining muhim hodisalaridan biriga aylandi. Mazkur jarayon aholining diniy savodxonligini oshirish, Qur'on mazmunini ona tilida tushunish va yosh avlodni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashda muhim õrin tutdi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, mustaqillik yillarida Qur'oni Karim ma'nolarining õzbek tiliga tarjima qilinishi faqat diniy adabiyotlar nashri bilan cheklanib qolmadi. Bu jarayon milliy õzlikni

Mualliflik huquqi egasi tomonidan ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

anglash, tarixiy xotirani tiklash, diniy-ma'rifiy merosni ommalashtirish va jamiyatning ma'naviy hayotini rivojlantirish bilan chambarchas bog'liq bõldi. Shu jihatdan Qur'on tarjimalarining yaratilishi, nashr qilinishi va ijtimoiy hayotdagi ahamiyatini tarixiy nuqtayi nazardan õrganish muhim ilmiy vazifa hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya :Õzbekistonda Qur'oni Karim ma'nolarining tarjima qilinishi va tafsirlarining nashr etilishi masalasi diniy-ma'rifiy meros, manbashunoslik, islomshunoslik va tarjimashunoslik bilan uzviy bog'liqdir. Ushbu mavzuni õrganishda, avvalo, bevosita Qur'on tarjimalari va tafsir asarlariga murojaat qilish zarur. Chunki tarjimonlarning uslubi, oyatlarga berilgan izohlar, arabcha matn bilan õzbekcha ma'nolar õrtasidagi munosabat va nashrlarning tuzilishi tarixiy jarayonni anglashda asosiy manba hisoblanadi.

Mavzuning muhim manbalaridan biri Sayyid Mahmud Taroziy – Oltinxon Tõra tomonidan tayyorlangan Qur'on ma'nolarining tarjima va sharhidir. Oltinxon Tõra 1956-yilda Qur'on ma'nolarini eski õzbek tiliga yaqin turkiy tilda tarjima qilgan. Mazkur asar Õzbekiston mustaqillikka erishishidan avval yaratilgan bõlsa-da, keyingi davrda Qur'on tarjimalari tarixini õrganishda muhim manba sifatida ahamiyat kasb etdi. Uning tarjimasi keyinchalik Õzbekistonda ham nashr qilinib, kitobxonlar orasida tarqaldi.[1]

Shayx Alouddin Mansurning "Qur'oni Karim. Õzbekcha izohli tarjima" asari mustaqillik arafasi va dastlabki yillarida amalga oşirilgan tarjima ishlarining eng muhim natijalaridan biri hisoblanadi. Mazkur tarjima 1989–1990-yillarda boshlangan diniy-ma'rifiy jarayonlar bilan bog'liq bõlib, keyinchalik 1992-yilda "Cõlpon" nashriyotida alohida kitob shaklida chop etildi. Ushbu asar zamonaviy õzbek adabiy tilida Qur'on mazmunini tushuntirishga qaratilganligi bilan muhim ahamiyatga ega bõldi.[2]

Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning "Tafsiri Hilol" asari Qur'on ma'nolarini õzbek tilida yetkazish va oyatlarni sharhlash sohasidagi muhim ilmiy-ma'rifiy manbadir. Asarning dastlabki qismlari 1991-yildan boshlab nashr etila boshlagan. Keyingi yillarda uning boshqa poralari ham tarjima va tafsir qilinib, yakunda ko'p jildli asar shakllandi. "Tafsiri Hilol"da oyatlarning tarjimasi bilan birga ularning mazmuni, nozil bõlish sabablari, tarixiy sharoiti va axloqiy xulosalari ham yoritilgan.[3]

Shayx Abdulaziz Mansurning "Qur'oni Karim ma'nolarining tarjima va tafsiri" asari ham mustaqillik davri Qur'on tarjimashunosligining muhim namunalaridan biridir. Ushbu asarda arabcha matn, õzbekcha ma'nolar va izohlar birgalikda berilib, kitobxonning Qur'on mazmunini kengroq anglashiga yordam beradigan yondashuv qõllanilgan. Shuningdek, Mutallib Usmon va boshqa sharqshunos olimlar ishtirokida tayyorlangan "Qur'oni Karim. Tarjima va ilmiy-tarixiy izohlar" asari ham ilmiy izohlar va tarixiy ma'lumotlarga boyligi bilan ajralib turadi.[4]

Mavzuni õrganishda Muhammadjon Mavlaviy Hindistoniy tomonidan tayyorlangan "Bayonul Furqon fi tarjimatil Qur'on" asari, Shayx Usmonxon Alimovning "Tafsiri Irfon" kitobi ham muhim manbalar sirasiga kiradi. Ushbu asarlar õzbek tilida Qur'on ma'nolarini tushuntirish va tafsir ilmini rivojlantirishga xizmat qilgan. Shuningdek, H. S. Karomatovning "Qur'on va õzbek adabiyoti", Shayx Ismoil Maxdumning "Toshkentdagi Usmon mus'hafining tarixi" kabi tadqiqotlari Qur'onning õzbek xalqi madaniy va ma'naviy hayotidagi õrnini anglash uchun muhim ilmiy asos bõlib xizmat qiladi.[5]

Mazkur maqolani tayyorlashda tarixiylik, xronologik izchillik, qiyosiy tahlil, manbashunoslik va ilmiy xolislik tamoyillaridan foydalanildi. Tarixiylik tamoyili orqali Qur'on tarjimalarining yuzaga kelishiga sabab bõlgan siyosiy, ijtimoiy va ma'naviy sharoitlar õrganildi. Xronologik yondashuv asosida tarjimalarning yaratilishi va nashr qilinishi bosqichma-bosqich tahlil qilindi. Qiyosiy tahlil usuli yordamida turli tarjimonlarning asarlari, ularning mazmuni, izoh berish uslubi va ilmiy xususiyatlari

Mualliflik huquqi egasi tomonidan ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

õzaro solishtirildi. Manbashunoslik yondashuvi esa nashr etilgan tarjima va tafsir asarlarining tarixiy ahamiyatini aniqlashga imkon berdi.

Muhokama va natijalar: Õzbekistonda Qur'oni Karim ma'nolarini õzbek tiliga tarjima qilish jarayoni mustaqillik yillarida yangi bosqichga kõtarilgan bõlsa-da, uning tarixiy ildizlari ancha oldingi davrlarga borib taqaladi. Qur'on ma'nolarini turkiy tilga tarjima qilishga bõlgan ehtiyoj musulmon aholining muqaddas kitob mazmunini õz ona tilida anglash istagi bilan bog'liq edi. Arab tilini bilmagan kitobxonlar uchun oyatlarning ma'nosini tushuntirib beradigan tarjima va sharhlarning mavjudligi diniy bilimlarni kengaytirishda muhim vosita hisoblangan.

Ushbu tarixiy jarayonda Sayyid Mahmud Taroziy – Oltinxon Tõraning xizmatlari alohida e'tiborga loyiq. U 1956-yilda Qur'oni Karim ma'nolarini turkiy tilda tarjima qilib, keng sharhlar bilan boyitgan. Oltinxon Tõra xorijda yashagan turkistonlik vatandoshlarimizning Qur'on mazmunini ona tilida õrganishga bõlgan ehtiyojini hisobga olib, ushbu mas'uliyatli ishni amalga oşirgan. Uning tarjimasi keyinchalik Õzbekistonda ham nashr etildi. Bu asar mustaqillik davrida amalga oşirilgan tarjimalar uchun tarixiy tajriba va muhim ilmiy manba vazifasini bajardi.[6]

Mustaqillik arafasida Qur'oni Karim ma'nolarini õzbek tiliga tarjima qilish masalasi jamoatchilik va diniy ulamolar õrtasida faol muhokama qilina boshladi. 1980-yillarning oxiri va 1990-yillarning boshlarida jamiyatda milliy va diniy qadriyatlarni tiklashga bõlgan ehtiyoj kuchaydi. Shu davrda diniy adabiyotlarni nashr etish borasidagi mavjud cheklovlar asta-sekin yumshab, Qur'on ma'nolarini õzbek tilida yetkazishga qaratilgan ishlar faollashdi. 1989–1990-yillarda ayrim davriy nashrlarda Qur'on tarjimalari va ularning qismlari e'lon qilina boshladi. Bu jarayon keyinchalik to'liq tarjimalarning nashr etilishi uchun muhim tayyorgarlik bosqichi bõldi.[7]

Mustaqillikning dastlabki yillarida amalga oşirilgan eng muhim ishlardan biri Shayx Alouddin Mansur tomonidan tayyorlangan Qur'oni Karim ma'nolarining izohli tarjimasi bõldi. Tarjima dastlab davriy nashrlarda e'lon qilinib, 1992-yilda "Cõlpon" nashriyotida alohida kitob shaklida chop etildi. Bu asar zamonaviy õzbek tilida Qur'onning to'liq mazmunini keng kitobxonlar ommasiga yetkazgan muhim nashrlardan biri sifatida tarixga kirdi. Tarjima jarayonida Qur'on oyatlarining ma'nosini tushunarli ifodalash, arab tilidagi diniy istilohlarning mazmunini saqlash va matnning umumiy mohiyatini õzbek kitobxoniga yetkazishga e'tibor qaratildi.[8]

Alouddin Mansur tarjimasining nashr etilishi Õzbekiston ma'naviy-ma'rifiy hayotida muhim voqea bõldi. Chunki ushbu davrgacha Qur'on mazmunini ona tilida to'liq õqish imkoniyati keng omma uchun yetarli darajada mavjud emas edi. Kitobning nashr qilinishi natijasida turli yoshdagi kitobxonlar Qur'on oyatlarining ma'nolarini õzbek tilida õrganish imkoniyatiga ega bõldilar. Bu esa diniy adabiyotlarga bõlgan qiziqishni oshirdi va Qur'onni mustaqil õrganish jarayonini faollashtirdi.

Mustaqillik yillaridagi Qur'on tarjimalari tarixida Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning faoliyati alohida õrin tutadi. Olimning "Tafsiri Hilol" asari dastlab 1991-yildan boshlab ayrim poralar va qismlar shaklida nashr etila boshladi. Dastlabki nashrlarda Qur'onning oxirgi poralariga e'tibor qaratilgan bõlib, keyinchalik boshqa qismlar ham izchil ravishda tarjima va tafsir qilindi. 1991–2005-yillar oralig'ida amalga oşirilgan ushbu faoliyat natijasida Qur'onning keng qamrovli, ko'p jildli tafsiri yuzaga keldi.[9]

"Tafsiri Hilol"ning muhim xususiyati shundaki, unda Qur'on oyatlarining ma'nosi shunchaki tarjima qilib berilmaydi, balki ularning mazmuni kengroq sharhlanadi. Asarda oyatlarning nozil bõlish sabablari, tarixiy voqealar bilan bog'liqligi, diniy hukmlar va axloqiy xulosalar izchil tushuntiriladi. Muallif Qur'on mazmunini zamonaviy õzbek kitobxoniga tushunarli tarzda yetkazishga harakat qilgan.

Mualliflik huquqi egasi tomonidan ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Shu sababli mazkur asar nafaqat diniy ta'lim olayotganlar, balki Qur'on mazmunini mustaqil õrganishga intilgan keng kitobxonlar ommasi uchun ham muhim manbaga aylandi.

"Tafsiri Hilol"ning nomlanishi ham ramziy ma'noga ega. Hilol yangi oy, yangilanish va yorug'lik timsoli sifatida talqin qilinadi. Mustaqillikdan keyingi davrda diniy-ma'rifiy hayotning jonlanishi va Qur'on ma'nolarining ona tilida kengroq tarqalishi mazkur nomning mazmuni bilan hamohang edi. Asarning keyingi nashrlari uning ilmiy-ma'rifiy ahamiyatini yanada mustahkamladi. Ushbu tafsir õzbek tilida Qur'onni chuqurroq õrganish an'analarining rivojlanishiga katta hissa qõshdi.

Qur'on ma'nolarini tarjima qilish va tafsir etishda Shayx Abdulaziz Mansurning xizmatlari ham muhim ahamiyatga ega. Uning "Qur'oni Karim ma'nolarining tarjima va tafsiri" asari 2001-yilda nashr etilib, keyingi nashrlarda takomillashtirildi. Mazkur asarda Qur'on oyatlarining arabcha matni, õzbekcha tarjimasi va izohlari birgalikda berilgan. Bunday uslub kitobxonga oyatning asl matni bilan uning õzbekcha ma'nosini qiyoslash imkonini yaratadi. Shuningdek, ayrim murakkab diniy tushunchalar va istilohlarning sharhlanishi Qur'on mazmunini to'g'ri anglashga yordam beradi.[10]

Abdulaziz Mansur tarjima va tafsirida ilmiy aniqlik, diniy istilohlarning mazmunini saqlash va matnning tushunarliligiga e'tibor qaratilgan. Bu asar Qur'on oyatlarini faqat umumiy mazmun jihatidan emas, balki ularning diniy va axloqiy mohiyatini anglash nuqtayi nazaridan ham õrganish imkonini beradi. Natijada õzbek tilidagi Qur'on tarjimalari va tafsirlari orasida mazkur asar ham muhim õrin egalladi.

Mustaqillik davrida Qur'on ma'nolarini tarjima qilish bilan bir qatorda, uni ilmiy-tarixiy izohlar bilan nashr etish yõnalishi ham rivojlandi. Mutallib Usmon va boshqa sharqshunos olimlar ishtirokida tayyorlangan "Qur'oni Karim. Tarjima va ilmiy-tarixiy izohlar" asari ushbu jarayonning muhim namunalaridan biri hisoblanadi. Mazkur nashrda Qur'on matni va tarjimasiga ilmiy yondashuv asosida izohlar berilgan. Unda tarixiy voqealar, diniy tushunchalar va ayrim oyatlarning mazmunini anglashga yordam beradigan ma'lumotlar keltirilgan. Bunday nashrlar Qur'onni faqat diniy manba sifatida emas, balki tarixiy va madaniy merosning muhim tarkibiy qismi sifatida õrganishga ham imkon yaratadi.[11]

Qur'on ma'nolarini tarjima qilishda Muhammadjon Mavlaviy Hindistoniy faoliyati ham alohida ahamiyatga ega. Uning "Bayonul Furqon fi tarjimatil Qur'on" asari õzbek tafsirshunosligi tarixida muhim manbalardan biri hisoblanadi. Asarda Qur'on oyatlarini tarjima qilish va sharhlashda an'anaviy tafsir usullariga tayanilgan. Muhammadjon Hindistoniy diniy ilmlarni chuqur egallagan olim sifatida Qur'on mazmunini tushuntirishda arab tilidagi manbalar va islomiy ilmiy merosga murojaat qilgan. Uning asari õzbek tilida tafsir yaratish an'analarining rivojlanishida muhim õrin tutadi.[12]

Shayx Usmonxon Alimov tomonidan tayyorlangan "Tafsiri Irfon" asari ham mustaqillik davrida Qur'on ma'nolarini sharhlash va ommaga yetkazish borasidagi ishlarning davomi hisoblanadi. Ushbu asarda oyatlarning mazmunini tushuntirish, ularning axloqiy va tarbiyaviy jihatlarini ochib berish hamda diniy bilimlarni keng kitobxonlar ommasiga yetkazishga e'tibor qaratilgan. "Tafsiri Irfon"ning nashr etilishi õzbek tilidagi tafsirlar doirasini kengaytirib, Qur'onni turli ilmiy va ma'rifiy yondashuvlar asosida õrganish imkoniyatlarini oshirdi.[13]

Qur'on tarjimalari tarixida Shamsiddin Boboxonov tomonidan amalga oşirilgan ishlarni ham qayd etish lozim. Mustaqillik davrining dastlabki yillarida Qur'onning ayrim qismlari, jumladan, 30-porasi õzbek tilida nashr qilindi. Bunday nashrlar Qur'on mazmunini keng ommaga yetkazish, uning ayrim qismlarini õrganish va diniy bilimlarni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etdi. Bu davrda turli olimlar va tarjimonlarning faoliyati natijasida Qur'on ma'nolarini õzbek tilida yetkazishning bir necha uslublari shakllandi.[14]

Mualliflik huquqi egasi tomonidan ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

2004-yilda Qur'oni Karimning kõzi ojiz insonlar uchun Brayl yozuvida sakkiz jildli shaklda nashr etilishi ham Õzbekiston diniy-ma'rifiy hayotidagi muhim voqealardan biri bõldi. Mazkur nashr diniy bilimlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, imkoniyati cheklangan insonlarning ham Qur'on mazmunini õrganishiga sharoit yaratish nuqtayi nazaridan katta ahamiyatga ega edi. Bu hodisa diniy-ma'rifiy adabiyotlarni nashr etishda ijtimoiy tenglik va barcha qatlamlar uchun bilim olish imkoniyatini ta'minlash masalalariga e'tibor kuchayganini kõrsatadi.[15]

Mustaqillik yillarida Qur'on tarjimalari va tafsirlarining nashr etilishi faqat kitoblar sonining ortishi bilan cheklanib qolmadi. Bu jarayon diniy bilimlarning mazmunan kengayishi, tarjima madaniyatining rivojlanishi va õzbek tilidagi diniy ilmiy adabiyotlarning takomillashuviga ham xizmat qildi. Tarjimonlar oldida turgan eng murakkab vazifalardan biri arab tilidagi sõz va iboralarning mazmunini õzbek tilida to'g'ri ifodalash edi. Chunki Qur'on matnida diniy, axloqiy, huquqiy va tarixiy mazmunga ega bõlgan tushunchalar mavjud bõlib, ularni tarjima qilishda faqat lug'aviy ma'no bilan cheklanib qolish yetarli emas.

Qur'on tarjimalarining yana bir muhim jihati shundaki, ular õzbek adabiy tilining diniy-ma'rifiy imkoniyatlarini kengaytirdi. Arab tilidan kirib kelgan diniy istilohlarni õzbek tilida izohlash, murakkab tushunchalarni sodda va ravon ifodalash, matnning mazmunini saqlagan holda kitobxonga yetkazish tarjimonlardan katta bilim va tajriba talab qildi. Shu jarayonda õzbek tilidagi diniy adabiyotlarning uslubiy imkoniyatlari rivojlandi. Natijada Qur'on tarjimalari nafaqat diniy bilimlarni tarqatish, balki õzbek tilining ilmiy va ma'rifiy imkoniyatlarini namoyon etishda ham muhim õrin egalladi.

Qur'oni Karim tarjimalarining jamiyat hayotiga ta'sirini aholining diniy savodxonligi bilan bog'liq holda ham baholash mumkin. Ona tilidagi tarjimalar arab tilini bilmaydigan insonlarga Qur'on oyatlarining mazmunini anglash imkonini berdi. Bu esa diniy bilimlarni faqat tor doiradagi mutaxassislar yoki arab tilini biladigan kishilar orasida emas, balki keng jamoatchilik orasida ham tarqalishiga xizmat qildi. Odamlar Qur'onda bayon etilgan axloqiy tamoyillar, insoniy munosabatlar, adolat va mas'uliyat haqidagi qarashlarni õz tilida õqib, ularning mazmunini chuqurroq anglay boshladilar.

Qur'on tarjimalari yosh avlodning ma'naviy-axloqiy tarbiyasida ham muhim ahamiyatga ega. Ularda ilgari surilgan halollik, rostgõylik, mehr-oqibat, ilm olish, ota-onaga hurmat, yetimlarga g'amxõrlik va jamiyat oldidagi mas'uliyat kabi qadriyatlar tarbiyaviy jihatdan katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu qadriyatlarni õrganish yoshlarning dunyoqarashini kengaytirish, ularda insoniy fazilatlarni shakllantirish va ma'naviy barkamollikka intilishini kuchaytirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, Qur'on tarjimalari va tafsirlarini õrganishda ilmiy asoslangan manbalarga murojaat qilish, oyatlarni malakali mutaxassislarning sharhlari asosida tushunish muhim hisoblanadi.

Mustaqillik yillarida diniy-ma'rifiy adabiyotlarning nashr qilinishi jamiyatda tarixiy xotira va milliy õzlikni anglash jarayoniga ham ta'sir kõrsatdi. Chunki Qur'oni Karim va uning tafsirlari õzbek xalqi tarixiy-ma'naviy merosining ajralmas qismi hisoblanadi. Diniy qadriyatlarning tiklanishi, qadimiy ilmiy merosning qayta õrganilishi va diniy adabiyotlarning ona tilida nashr etilishi xalqning tarixiy ildizlariga bõlgan qiziqishini oshirdi. Bu jarayon diniy e'tiqod bilan milliy madaniyat õrtasidagi tarixiy aloqalarni chuqurroq anglashga yordam berdi.

Bugungi kunda Qur'on tarjimalari va tafsirlaridan foydalanish imkoniyatlari yanada kengaymoqda. An'anaviy bosma nashrlar bilan bir qatorda elektron kitoblar va raqamli ma'lumotlar bazalari ham shakllanmoqda. Bu esa kitobxonlarga kerakli ma'lumotlarni tez topish, oyatlarning tarjimasi va tafsirlarini qiyoslash hamda turli ilmiy manbalardan foydalanish imkonini bermoqda. Shu bilan birga, internet makonida diniy mazmundagi tekshirilmagan ma'lumotlar ham uchrashi mumkin. Shuning

Mualliflik huquqi egasi tomonidan ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

uchun Qur'on mazmunini õrganishda ishonchli tarjima va tafsir asarlariga tayanish, ilmiy asoslanmagan talqinlardan ehtiyot bõlish muhimdir.

Qur'oni Karim tarjimalarining tarixiy ahamiyati shundaki, ular mustaqillik davrida diniy-ma'rifiy hayotning rivojlanishiga xizmat qilgan muhim ilmiy va madaniy hodisa sifatida namoyon bõldi. Tarjimalar orqali xalqimiz muqaddas manbaning mazmunini õz ona tilida õrganish imkoniyatiga ega bõldi. Turli olimlar tomonidan tayyorlangan tarjima va tafsirlarning mavjudligi esa Qur'onni turli ilmiy yondashuvlar asosida õrganish, ularning mazmunini qiyoslash va diniy bilimlarni yanada chuqurlashtirish uchun keng imkoniyat yaratdi.

Xulosa : Xulosa qilib aytganda, mustaqillik yillarida Qur'oni Karim ma'nolarining õzbek tiliga tarjima qilinishi Õzbekistonning ma'naviy, madaniy va diniy-ma'rifiy hayotida muhim tarixiy jarayonlardan biri bõldi. Ushbu jarayon mustaqillik arafasida boshlangan tarjima ishlarining davomi sifatida shakllanib, 1990-yillardan boshlab kengroq miqyosda rivojlandi. Natijada Qur'on ma'nolarining izohli tarjimalari, ko'p jildli tafsirlar, ilmiy-tarixiy sharhlar va maxsus nashrlar yuzaga keldi.

Sayyid Mahmud Taroziy – Oltinxon Tõra, Shayx Alouddin Mansur, Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, Shayx Abdulaziz Mansur, Muhammadjon Mavlaviy Hindistoniy, Shamsiddin Boboxonov, Shayx Usmonxon Alimov va boshqa olimlarning xizmatlari ushbu jarayonning rivojlanishida muhim õrin tutdi. Ularning tarjima va tafsir asarlari Qur'on mazmunini õzbek tilida tushunish, diniy bilimlarni keng ommaga yetkazish va ma'naviy qadriyatlarni mustahkamlashga xizmat qildi.

Ayniqsa, Alouddin Mansurning "Qur'oni Karim. Õzbekcha izohli tarjima" asari, Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning "Tafsiri Hilol" kitobi hamda Abdulaziz Mansurning "Qur'oni Karim ma'nolarining tarjima va tafsiri" asarlari mustaqillik davri Qur'on tarjimashunosligining muhim yutuqlari sifatida e'tirof etiladi. Ushbu nashrlar aholining Qur'on mazmunini ona tilida õrganish imkoniyatlarini kengaytirib, diniy savodxonlikning oshishiga ijobiy ta'sir kõrsatdi.

Shuningdek, Qur'on ma'nolarining õzbek tiliga tarjima qilinishi milliy-ma'naviy merosni tiklash, õzbek tilidagi diniy ilmiy adabiyotlarni rivojlantirish va yosh avlodni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etdi. Tarjimalar orqali Qur'onda ilgari surilgan insonparvarlik, adolat, halollik, mehr-oqibat va ilm-ma'rifat kabi qadriyatlarni kengroq anglash imkoniyati yaratildi.

Kelgusida mustaqillik yillarida yaratilgan Qur'on tarjimalari va tafsirlarini qiyosiy jihatdan chuqur õrganish, ularning til xususiyatlari, tarjima uslublari va ilmiy yondashuvlarini tahlil qilish muhim vazifalardan biri bõlib qoladi. Shuningdek, mazkur asarlarni zamonaviy nashriyot talablari asosida qayta tayyorlash, ilmiy izohlar bilan boyitish va raqamli shaklda keng ommaga yetkazish diniy-ma'rifiy merosni kelajak avlodlarga yetkazishda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alouddin Mansur. Qur'oni Karim. Õzbekcha izohli tarjima. – Toshkent: Cõlpon, 1992.
2. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol. – Toshkent: Hilol-Nashr.
3. Abdulaziz Mansur. Qur'oni Karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. – Toshkent: Toshkent islom universiteti nashriyoti, 2004.
4. Sayyid Mahmud Taroziy – Oltinxon Tõra. Al-Qur'on al-karim ma'nolarining tarjimasi va sharhlari. – Toshkent, 2002.
5. Muhammadjon Mavlaviy Hindistoniy. Bayonul Furqon fi tarjimatil Qur'on.
6. Usmonxon Alimov. Tafsiri Irfon. – Toshkent.

Mualliflik huquqi egasi tomonidan ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

7. Shamsiddin Boboxonov. Qur'oni Karim. 30-pora. – Moskva: COMIL, 1992.
8. Mutallib Usmon va boshqalar. Qur'oni Karim. Tarjima va ilmiy-tarixiy izohlar. – Toshkent, 2004.
9. Karomatov H.S. Qur'on va õzbek adabiyoti. – Toshkent, 1993.
10. Ismoil Maxdum. Toshkentdagi Usmon mus'hafining tarixi. – Toshkent, 1995.
11. Usmonov M. Qur'oni Karim va janobi Rasulullohning amallari. – Toshkent, 1992.
12. Maxsudov D.R. Tafsir ilmiga kirish. – Toshkent: Qaqnus, 2019.
13. Rezvan E.A. Koran i ego tolkovaniya: teksty, perevody, kommentarii. – Sankt-Peterburg, 2000.
14. Rezvan E.A. Koran i ego mir. – Sankt-Peterburg, 2001.
15. Prozorov S.M. Arabskaya istoricheskaya literatura v Irake, Irane i Sredney Azii. – Moskva, 1980.
16. Qur'oni Karim tarjimalarining nashr etilishi va mustaqillik davridagi diniy-ma'rifiy jarayonlar. Acta NUUz ilmiy maqolasi. – Toshkent, 2023.
17. Mavlaviy Hindistoniy tafsirining yozilish tarixi va uslubi. O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi ilmiy nashri, 2026.
18. Õzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023.
19. Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar tõğrisida. Õzbekiston Respublikasining Qonuni. O'RQ-699, 2021-yil 5-iyul.

Mualliflik huquqi egasi tomonidan ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.